

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:7 (67224)
2019-yil 18-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

DONISHMAND BOBO SOVG'ASI

5-bet



USHBU SONDA:

**NABIRAM XITOYDAN
QAYTDI**

**QIZILTOG'LIKLAR
PESHQADAM**

7-bet

2-bet



**«QO'G'IRCHOG'IMNING
BOLASI BOR...»**

3-bet

BEMINNAT KO' MAKCHIM

Sevimli gazetam har hafta xonadonimizga quvonch olib kiradi. Uning rang-barang sahifalari orqali tengdoshlarim ijodidan bahramand bo'laman.



«Ingliz tili» sahi-fasidagi top-shiriqlarni zavq bilan bajaraman. O'quvchilarning yutuqlaridan xursand bo'laman. Shu bois, o'zim ham tanlovlarda ishtirok etishga harakat qilayapman. Jumladan, tuman «Olimpiya» sport klubida badiiy gimnastika bilan shug'ullanib, turli musobaqalarda sovrindor bo'ldim. «Kamalak» yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichi g'olibi bo'ldim. Eng quvonarlisi, qadrdon gazetamda e'lon qilingan «Boyligni bolalikdan asrang!» tanlovida ham munosib ishtirok etdim. Ayniqsa, tahririyat xodimlari maktabimga tashrif buyurib, men va ustozim Kibora Abilovani taqdirlashganida, barcha o'quvchilar-u o'qituvchilarning quvonchi cheksiz edi. Bu yutuqlarni qo'lga kiritishimda beminnat ko'makchi bo'layotgan «Tong yulduzi»dan behad minnatdorman.

Mumtozabonu FAXRIDDINOVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
153-umumta'lim maktabining
4-«A» sinf o'quvchisi

Toshkent tumani, Hasanboy qishlog'ida joylashgan 13-umumta'lim maktabi 403 nafar o'quvchini o'z bag'riga olgan. Hashar yo'li bilan bunyod etilgan ko'rkam, fayzli bu ta'lim maskanida iqtidorli, bilimga chanqoq o'quvchilar talaygina.

TAKLIFDAN MAMNUN BO'LDIK

Kuni kecha «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri Feruza opa Adilova bilan ushbu maktabga tashrif buyurdik. O'quvchilar bilan bo'lgan qizg'in uchrashuvda ota-onalar, ustozlar ishtirok etdi.

Tadbir davomida adabiyotga ixlosmand o'quvchilar tomonidan she'r va hikoyalar o'qildi. Ular o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga atroflicha javoblar oldi. Bundan tashqari, gazeta sahifalarida nimalar haqida o'qishni istashlarini bildirishdi:

Avaz OBIDOV, 8-«A» sinf o'quvchisi:

– Men gazetaning sport sahifasini diqqat bilan kuzatib boraman. Chunki o'zim ham futbolga juda qiziqaman. Shu bois, tumanimizdagi «Bunyod klubi» mashg'ulotlariga qatnamay. Bir necha bor jamoamiz bilan tuman birinchiликlarida ishtirok etganman. Gazeta orqali yurtimizning chekka tumanlaridagi sport to'garaklari haqida ham kengroq ma'lumot berishgini kutib qolaman.

Tadbir davomida jajji bolakay Burhoniddin Parpixo'jayev e'tiborimizni tortdi. U og'ir jarrohlik amaliyotini boshidan o'z'kazgan bo'lsa-da, bilim olishga qiziqishi tufayli Munira Po'latova, Gulchehra Abduqodirova singari fidoyi ustozlar ko'magida uйда ta'lim olishni davom ettirayotgan ekan. U bugungi uchrashuvga olib borishni bobosi Murodxo'ja otadan iltimos qilibdi. Tadbir davomida bolakay uning kitob o'qishga bo'lgan mehri o'z'gacha ekanligi sezilib turdi.

Tadbir so'ngida o'quvchilar Xudoyberdi To'xtaboyev bilan uchrashib, ularning nasihatlarini, yangi hikoyalaridan bahramand bo'lish orzusida ekanliklarini aytishdi. Bu taklif bizga ham manzur bo'ldi.



Nigora ABDUNAZAROVA

QIZILTOG'LIKLAR PESHQADAM

Bugun sizlarga hikoya qilmoqchi bo'lgan umumta'lim maktabining o'z xonandasi-yu shoirlari, raqqosa-yu rassomlari bor ekan. Shu sabab, ta'lim dargohida o'tkaziladigan eng kichik tadbir va ochiq dars ham katta bayram-u ijod kechasiga aylanib ketarkan. Bu maktabning dovrug'i bizgacha yetdi-yu, navbatdagi safarga otlandik.

Toshkent viloyati, Angren shahri yaqinidagi Qiziltog' qo'rg'oni haqida eshitganmisiz? Aytishlaricha, foydali qazilmalarga boy bu hududning tog'lariga uzoqdan qarasangiz, ajoyib qizg'ish tusda ko'rinar ekan. Shu bois ham ushbu qo'rg'on Qiziltog' deb nomlanar ekan.

Biz ham nihoyat ajoyib shaharchadagi 46-umumta'lim maktabiga

yetib keldik. Maktabning Yoshlar ittifoqi yetakchisi Maftuna Murodova bizni ochiq chehra bilan qarshilarkan, barcha savollarimizga javob berishga shay ekanidan quvondik. Ammo ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Zulfiya Abdurahmonova «O'z ko'zingiz bilan ko'rganingiz boshqacha», deya bizni faollar zaliga yetakladi.

Shunday qilib, ijodiy uchrashuv boshlandi. Sahnaga dastlab boshlovchi qiz – 7-«V» sinf o'quvchisi Farangiz Aslonova taklif etildi. U «Maktabimiz xonandasi», deya 6-«V» sinf o'quvchisi Murod Abdullayevni tanishtirgach, barcha jonli ijrodan zavq oldi. Tumandagi 1-Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchisi bo'lgan bu yosh iqtidor egasi bugunga qadar qator tanlovlarda qatnashib, maktab va shaharcha nomini barchaga tanitayotgan ekan.

«Endi esa bir she'r-xonlik qilyaylik, muxbir opa, baho berish

esa sizdan», deyishdi havasmand yosh shoirlar. «Qani, boshlang», deya bo'sh kelmadim men ham. So'ng, 8-«B» sinf o'quvchisi Ja'far



Adashboyev sahnaga chiqib, o'zi yozgan she'rini ifodali o'qib berganida, bu dargohdan kelajakda Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbardek yetuk bolalar shoirlari yetishib chiqishiga umid bog'ladi. Musiqiy tanaffusda esa endigina 1-sinfda tahsil olayotgan jajji skripkachi, Rossiyada o'tkazilgan «Solnechniy svet» tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritgan Rahmatjon Abdullahakimovning san'atidan

bahramand bo'ldik. Raqqosa-yu rassom qizlarimiz ham qolib ketmasin-a», deya qayg'urdi ustozlar. So'ng, taklifga binoan davraga chiqqan 5-«B» sinf o'quvchisi, «Kamalak» yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining 1-bosqich g'olibi Muxlisa Shukurova ijrosida ajoyib raqs tomosha qildik.

Sport bo'yicha ham faollikni qo'ldan bermayotgan Zahiriddin Mehmmon rahbarligidagi bu maskanning iqtidorli yosh shovvzolari hatto xalqaro musobaqalarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etgan ekan. Jumladan, taekvandochi sinfdoshlar – Asiddin Zayniddinov va Abdulolih Toshboyevning medal-larini ko'zdan kechirayotganimizda, «Ular Malayziyadagi musobaqaga borgan», dedi bolalar baland ovoza. Madina Quدراتullayeva esa «Men Qozog'istondagi musobaqada qatnashganman», dedi uyalibgina. Shuningdek, aka-singil Aziza va Miraziz hamda Jasur Baxtiyorovlar ham maktab faxri sanalarkan.

Bir so'z bilan aytganda, Qiziltog' qo'rg'onidagi bilim maskanidan olam-olam taassurot bilan ortga qaytdik.

Sayyora QODIROVA



KATTALAR, E'TIBOR BERING!

«QO'G'IRCHOQ'IMNING BOLASI BOR...»

Xizmatdan qaytayotib, ko'chada o'ynab yurgan qizaloqlarning gap-so'zlari qulog'imga chalindi.

– Qaranglar, tug'ilgan kunimga dadam chaqalog'i bor qo'g'irchoq sov'ga qildilar, – deya qo'lidagi qo'g'irchoq'ini o'rtoqlariga maqtanardi bir qizcha.

– Qani, chaqalog'i yo'q-ku, – e'tiroz bildirdi dugonasi.

– Chaqalog'i mana bu yerda, – dedi birinchi qizaloq qo'g'irchoq'ining do'ppaygan qorniga ishora qilib. – Qara, uning qorni ochiladi, – u shunday deya qo'g'irchoq'ining qornini ochdi-da, ichidan mittigina bolasini chiqarib, atrofidagilarga «ko'z-ko'z»ladi.

– O'zim tanladim, – deya qo'shimcha qildi u g'ururlanib...

Qizaloqlar «xomilador» qo'g'irchoq'ini qo'lma-qo'l qilib tomosha qilishardi. Mening esa ko'nglimni qandaydir g'ashlik, xavotir egalladi. Nahotki bu qizchaning dadasi go'dak yoshidagi farzandiga shunday o'yinchoqni ravo

Farzand tarbiyasi o'ta nozik masala. Unda bolalar uchun yaratilayotgan filmlar, multfilmlar, ular o'qigan kitoblar, hattoki o'ynayotgan o'yinchoq'-u qo'g'irchoqlarining ham ahamiyati katta.

ko'rgan bo'lsa, degan o'y kechdi xayolimdan. Balki bu qizaloqning dadasi unga tug'ilgan kunida o'zi yoqirtirgan qo'g'irchoq'ini olib berib, xursand qilgandir?! Lekin bunday g'arbona uslubdagi ochiq-sochiq kiyim kiydirilgan qo'g'irchoqlarning farzandlarimiz tarbiyasiga, ma'naviyatiga, ruhiyatiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini e'tibordan chetda qoldirgani achinarli hol.

Tan olishimiz kerak, bugun bozorlarimiz-u do'konlarimiz peshtaxtalari xorijdan keltirilgan o'yinchoqlar bilan to'la. Lekin yurtimizda milliy uslubdagi qo'g'irchoqlar yasaydigan qo'g'irchoq-bozlarimiz, milliy hunarmandchiligimiz an'alarini davom ettirib kelayotgan mohir hunarmandlarimiz talaygina. Afsuski, ular yasaydigan o'yinchoqlarga asosan, xorijliklar xaridor. Chet elliklar

zo'r mamnuniyat bilan xarid qilayotgan bunday o'zbekona qo'g'irchoqlar o'z farzandlarimiz quchog'iga yarashmaydimi?! Albatta, yarashadi! Buning uchun esa eng avvalo, biz kattalar milliy g'ururga ega bo'lmog'imiz, qolaversa, hayotda har bir narsadan ibrat qidiradigan murg'ak qalb egalari – dildandlarimizning oq varaqdek toza qalbini ildizlari moziyga tutash qadim qadriyatlarimizga hurmat, iftixor, sharqona odob-u axloq atalmish fazilatlar bilan ziynatlamog'imiz lozim. Zero, farzand tarbiyasi o'ta nozik masala. Unda bolalar uchun yaratilayotgan filmlar, multfilmlar, ular o'qigan kitoblar, hattoki o'ynayotgan o'yinchoq'-u qo'g'irchoqlarining ham ahamiyati katta. Chunki ular bolalar uchun shunchaki ermak, ovunchoq, vaqtning chog' o'tkazish vositasigina emas, balki milliy ong va tafakkurning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Bolalar aynan shunday vositalar orqali oqni qoradan, yaxshini yomondan farqlashni o'rganadilar. Ular orqali murg'ak qalblarda halollik, rostgo'ylik, insoniylik, to'g'riso'zlik kabi fazilatlar ildiz otadi. Bir so'z bilan aytganda, o'yinchoqlar yaxshi «tarbiyachi» vazifasini ham o'taydi. Shunday ekan, ota-onalar farzand tarbiyasiga jiddiroq yondashishsa, ularga o'yinchoq tanlashda ana shu jihatlarga e'tibor qaratishsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Feruz JALILOVA



BUYUKLARGA CHEKSIZ EHTIROM

Kuni kecha maktab-internatimizda bobokalonlarimiz tug'ilgan sanalarga bag'ishlab ajoyib tadbir bo'lib o'tdi. Unda Namangan davlat universiteti rektori Ulug'bek Inoyatov, Namangan viloyat Yozuvchilar uyushmasi raisi Jamoliddin Muslim, o'quvchilar, ustozlar va ota-onalar ishtirok etdi. Kechada so'zga chiqqanlar Navoiy va Boburning beg'ubor, betakror ma'naviy olamiga o'quvchilarni qancha yaqinlashtirsak, shunchalar maqsadga muvofiq bo'lishini ta'kidladilar. Tantanada o'quvchilar tomonidan Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Hayrat ul-abror» dostonlaridan parchalar nemis va ingliz tillarida, «Boburnoma» asaridan parchalar esa fransuz va rus tillarida maktab o'quvchilari tomonidan mahorat bilan ijro etildi. Qolaversa, maktabning 10-sinf o'quvchisi Saidismoil Dadaxo'jayev «Kelmadi» radifli g'azalni nemis tilida ifodalari o'qib, barchaning olqishiga sazovor bo'ldi. 7-sinf o'quvchilari Bobur ruboiylarini rus, ingliz, nemis, arab va fransuz tillarida talqin etdilar.

Tadbirda Saidismoil Dadaxo'jayev, Muxlisa Qo'chqorxo'jayeva, Abror Asrorov hamda Manzura Mansurova kabi faol o'quvchilar Namangan davlat universiteti rektori Ulug'bek Inoyatov tomonidan maqto'v yorliq bilan taqdirlandi.

Mashhura XO'JAAHMADXONOVA,
Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi
maktab-internati o'quvchisi

«KAMALAK» BIZGA NIMA BERDI?

«Kamalak» bolalar tashkiloti 2001-yilning may oyida tashkil topgan bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalarni milliy g'oya asosida birlashtirish, yosh avlodni Vatanga sodiq va komil farzandlar etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratib berishdan iborat.

«Kamalak» bizga nima berdi? «Kamalak» sardori bo'lganimizdan so'ng, bu mas'uliyat bizni yanada yaxshi o'qishga, tashabbuskor va intiluvchan bo'lishga o'rgatdi. Tashkilot yaratib bergan imkoniyatlar tufayli muzeylarga, kutubxonalarga, xiyobonlarga sayohatga bordik. Deputatlar, shoir-u aktyorlar bilan uchrashdik. Men maktabimda «Kamalak» sardori ekanligimdan faxrlanaman.

«Kamalak» zo'r tashkilot, Imkoni haddan ziyod. Bu tashkilot maktabda, Yoshlarga bo'lgay qanot.

Diyorbek JO'RABOYEV,
poytaxtimizdagi 173-umumta'lim maktabining
6-«V» sinf o'quvchisi



**Ilmning buyuk maqsadi
bu faqat bilim emas, balki harakatdir.**

**Tong
yulduzi**

NAZIRA MUALLIMA

Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 79-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi Nazira Jalolovani hamma birdek hurmat qiladi.

Ular bilganlarini bolajonlarga o'rgatishdan aslo charchamaydi. Jonkuyar ustozga tinimsiz izlanishlari, o'quvchilarga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatlari tufayli «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni berilgan. Muallima shu kunlarda 6–11-sinflar o'rtasida bo'lib o'tadigan «Matematik olim bilan uchrashuv», «Matematik kecha», «Zukolar musobaqasi», «Kvadrat sonlar bizning do'stimiz», «O'yla, izla, top!» va «7x7» kabi tadbirlarga bosh-qosh. Ustozning har bir ochiq darsida AKT vositalari, yangi pedagogik texnologiyalardan, tarqatma materiallar va turli ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi.

Ustoz degan ulug' nomga loyiq bo'lgan Nazira opaga sharafli, shu bilan birga, mas'uliyatli ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Muzaffar AHMEDOV

DUTORCHI QIZLARNING PARVOZI BALAND

Malika Maqsudova bilan Nafisa Mirzakarimova Toshkent madaniyat kollejining a'lochi o'quvchilaridan. Orzulari osmon bo'lgan bu ikki dugona, ayni damda ustozlari Nilufar Abdullayevadan dutor chalish sirlarini qunt bilan o'rganib kelishmoqda.

Bugungi kunda ular respublikamizda o'tkazilayotgan barcha tadbir va anjumanlarda faol ishtirok etmoqda. 2017-yil Farrux Mirusmonov nomli Respublika ko'rik-tanlovida 3-, Yoshlar ittifoqi tomonidan uyushtirilgan «Kelajak poydevori» nomli tanlovda 2-, «Navo media» kompaniyasi tomonidan tashkillashtirilgan «GET PRO» tanlovida esa 1-o'rinni egallashdi.

Maqsuda bilan Nafisa dutor navosidan zavq olib, izlanishdan sira tolmaydilar. «Navro'z sadolari» IV xalqaro Milliy cholg'u ko'p ovozi ansambli va orkestrlar festivalida ham faol ishtirok etishdi. Bugungi kunda ikki dugona «Nihol» davlat mukofotining shahar bosqichida faol ishtirok etib, Respublika bosqichiga yo'llanma olishdi. Tinib-tinchimas, parvozi baland dutorchi qizlarimizga omad yor bo'lishini tilaymiz.

AXTAMQULI



Farg'ona viloyatiga navbatdagi xizmat safarimiz chog'ida Beshariq tumanidagi 26-umumta'lim maktabi rahbari Dilafro'z opa Nurmatova «Bizning maktabda ham iqtidorli o'quvchi va fidoyi ustozlar juda ko'p, ular haqida ham maqola yozinglar», deb qoldilar. Shu bois, bugun ushbu ta'lim maskani faoliyati haqida hikoya qilamiz.

USTOZLARDAN MINNATDORMIZ, – deydi beshariqlik o'quvchilar.

Mazkur bilim dargohida 1336 nafar o'quvchiga 101 nafar pedagog ta'lim-tarbiya beradi. Feruza Nizomiddinova ana shunday tajribali, ilg'or ish uslubiga ega ustozlardan. Muallima har bir darsni yangicha usulda o'tadi. U rahbarlik qilayotgan 3-«G» sinfidagi 37 nafar o'quvchi bir-birlari bilan ahil. Deyarli barcha yigit-qizlar tumandagi Bolalar va o'smirlar sport maktabining turli to'garaklariga qatnaydilar. Ayniqsa, bu sinfda shaxmat-shahka, futbol, badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchi o'quvchilar juda ko'p.



– Ustozimizni juda yaxshi ko'ramiz, – deydi sinfning a'lochi o'quvchilaridan biri Shahinabonu Zokirjonova. – Ularni biroz ko'rmasak, darrov sog'inib qolamiz. Sinflararo mashg'ulotlar, tadbirlar o'tkazsak, boshqa muallimlar bizning faol ishtirokimizdan xursand bo'lib, ustozimizga tashakkur aytishadi.

– Yaqinda Navoiy bobomizning tavallud kuni munosabati bilan «Hayrat ul-abror» dostonidagi ota-onaga hurmat, to'g'rilik, rostgo'ylikka da'vat qiluvchi hikoyatlardan sahna ko'rinishlari namoyish etdik, – deya qo'shimcha qildi Sherdilibek Mirzakarimov. – Dostondagi «Yolg'onni chin deb so'zlaydigan durroj (qirg'ovul) haqida»gi hikoyat orqali yolg'onchilik yomon illat ekanligini angladik.

Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Munira To'ychiyeva, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Farhodjon Nuriddinov, tajribali ustoz Dilnoza Hamidova, ota-onalar hay'ati raisi Manzura Ergashevlar Feruza opaning eng yaqin ko'makchisidir.

Aziz o'quvchilar! Siz ham bilim olishda, jamoat ishlarida ko'plab yutuqlarga erishayotgan bo'lsangiz kerak-a? Demak, sizlarni ham faollikka chorlab, maktublaringizni kutib qolamiz.

Nodira NAZAROVA

VAQTIMIZ O'TMOQDA SHOD

«Darsdan so'ng nimalar bilan shug'ullanasiz?» degan savolimizga ayrim o'quvchilar «Ota-onamizga uy yumushlarida yordamlashamiz», desa, ba'zilar «To'garaklarga boramiz», deydi. Bo'sh vaqtingizdan unumli foydalanib, hunar o'rgansangiz, o'z qo'lingiz bilan biror buyum yasab, uni yaqinlaringizga hadya qilsangiz, o'zingiz va yaqinlaringiz ko'ngli ko'tariladi.

Bo'ri aka O'rinov rahbarlik qilayotgan Surxondaryo viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida bolajonlar nafaqat hunar, balki ona tabiatga qo'pol muomalada bo'lmaslik, atrof-muhitni ifloslantirmaslik, jonivorlarni asrash sirlarini ham o'rganmoqda.

Markazda badiiy ijodiyot, texnika, chet tili, o'lkashunoslik va ekologiya yo'nalishlarida 38 ta to'garak faoliyati yo'lga qo'yilgan. Dilshod aka Qulsoatov rahbarligidagi «Aviamodel» to'garagi a'zolari nafaqat viloyat,

balki respublika miqyosida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda ham g'olib bo'lishgan.

– Bu to'garakka uch yildan buyon qatnayman. Birinchi bor kelganimda, tengdoshlarim yasagan avto va aviamodellarni ko'rib, «Men ham shunaqasidan yasay olamikanman?!» deya ularga rosa havas qilgan edim. Ustozimiz Dilshod akaning sa'y-harakatlari tufayli asta-sekin turli modellar yasashni o'rgana boshladim. Bugunga qadar tuman va viloyat

miqyosida o'tkazilgan tanlovlarda bilim hamda tajribamni oshirdim. Har safar biror yutuqqa erishganimda, ustozimdan behad minnatdor bo'laman. Kelgusida bundan ham yuksak natijalarni qo'lga kiritaman, – deydi 13-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Asadbek Ashuraliyev.

Surxondaryo viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida Asadbek kabi iqtidorli tengqurlaringiz talaygina. Hademay markazda «Varraklar sayli» boshlanadi. So'zimiz so'ngida ularning orzu-istaklari o'zlari yasagan varrak-



lar-u aviamodellar singari osmonni quchaversin, deymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

DONISHMAND BOBO SOVG'ASI

«– Quyonlarning uychasini qanday olib boramiz? – shoshilib dedi Mahmud.

– Bittasini men ko'tarib olaman, – maqtandi Salim.

– Sen bor, sabzilarni paqirga solib, tozalab yuvgin, – buyurdi akasi, – quyonlarni o'qatlantiradigan vaqt ham bo'lib qoldi».



Ushbu hikoyaning davomi bilan qiziqsangiz, sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sir ochildi» kitobini olib o'qing.

Kuni kecha O'zbekiston Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Xudoyberdi To'xtaboyevning «Tagob qishloq ertaklari», «Uch sayyohning safari», «Sir ochildi», «Donishmand bobo ertaklari» kitoblarning taqdimoti bo'lib o'tdi.

Quvonarlisi, kitobxon o'quvchilarimiz «Tong yulduzi» gazetasi-da «Tagob qishloq ertaklari» romanini qo'lyozma vaqtida o'qishga ulgurishgan. Bugun esa uni kitob holida qayta o'qib chiqishingiz mumkin. Unda yozuvchi o'z bolalik xotiralarini bayon qiladi. Ayni damda esa gazeta orqali «Donishmand bobo ertaklari»ni o'qiyapsiz. Bu kitobda tarixiy rivoyatlar, qissa va hikoyalar bugungi zamon tiliga moslab, ertak shaklida talqin etilgan.

«Uch sayyohning safari» kitobidan esa ibratli rivoyatlar o'rin olgan. «Sir ochildi» asarida bolalarning beg'ubor tuyg'ulari, orzu-umidlari, sho'xliklari aks etgan bir nechta hikoyalarni jamlagan.

O'ylaymizki, ushbu asarlar, albatta, sizning kitob javoningizdan munosib joy oladi.



Aziz bolajonlar! Shu desangiz, poytaxtimizdagi ajoyib voqealar sodir bo'ladigan bir maktabda tahsil olayotgan tengdoshlaringizning ko'pdan beri kutgan orzulari ro'yobga chiqibdi.

Ya'ni, Olmazor tumanidagi 234-umumta'lim maktabi o'quvchilari sevimli yozuvchilari Xudoyberdi To'xtaboyev bilan uchrashish baxtiga muvassar bo'libdi. Buni qarangki, butun maktabda shov-shuv bo'lgan xabar tahririyatimizga ham yetdi. Qizig'i, bu maskandagi faol ustozlar, o'qituvchilarga bizning ham atagan zo'r yangiligimiz bor edi. Shunday qilib, ajoyib uchrashuvga tashrif buyurdi.

Tadbirda Xudoyberdi boboning davrasi kengaygandan kengayib, kimdir bo'y cho'zib, kimdir tik turib bo'lsa-da, yozuvchining suhbatidan bahramand bo'lishga intildi. So'ng, bolalar «Bobo, endi dam oling, biz esa sizni zerikdirib qo'ymaymiz», deya o'z mahoratlarini ko'rsatish istagini bildirdi. Jumladan, 5-«A» sinf o'quvchisi Muhammadjon Chapayev yod olgan masalni shundayin qoyilmaqom qilib aytib berdiki, rolga kirib ketganini o'zi ham sezmay qoldi, nazarimizda. Biz esa yuqoridagi yangiligimizni aytishga oshiqdik. So'ng, obuna mavsumida faol ishtirok etgan ushbu ta'lim dargohini «Eng faol maktab» nominatsiyasi g'olibi bo'lganligini e'lon qildik.

Maktab rahbari Nasiba Nazarova va kutubxonachi Vasila Saidova esa «Tong yulduzi» Bosh muharriridan tashakkurnomani olayotgan paytda barcha ularni olqishladi.

Qisqasini aytganda, ajoyib davra suhbat bolajonlarga bir olam zavq bag'ishlab, beg'ubor orzularini ushaltirdi.

O'z muxbirlarimiz

Lesson 7

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

QUESTION TAGS

We use tags to confirm information.

e.g. *Akrom went to bed late last night, did not he?*

To form a question tag, repeat the auxiliary verb. For example, use *do* or *does* for the present. Use *will* or *won't* for the future.

After the auxiliary verb, use a pronoun (e.g. *he*, *she*, *it*, *they*).

If the sentence is positive, the question tag is negative.


e.g. *Sardor is Uzbek, is he?*

If the sentence is negative, the question tag is positive.

e.g. *Nothing happens, does it?*

Look at the statements below and complete the question tags.

- You are not a teacher, _____ you?
- My father does not smoke, _____ he?
- You play a musical instrument, _____ you?
- You did not know any of the other students before, _____ you?
- His teacher has not taught you before, _____ she?
- You will be here tomorrow, _____ you?
- My friend has traveled a lot, _____ he?
- You were good at sport when you were a child, _____ you?



Muhammadsharif
FAYZULLAYEV

FIND INSECTS

A	N	T	S	C	N	C	M
Q	D	G	N	R	R	O	O
F	L	F	A	A	W	C	S
K	R	F	I	B	Q	K	Q
Y	C	L	L	F	P	R	U
B	E	E	T	L	E	O	I
A	D	L	A	Y	H	A	T
F	H	J	R	R	F	C	O
W	P	C	T	P	Z	H	X



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Ma'mura G'ULOMOVA

AJIB GO'ZALLIK



Derazam yonida qunvaydi shamol,
Ochilgan gullarning boshini silab.
Olis manzillarga yetaklar xayol,
Porloq kelajagim baxtini tilab.

Har tong quyosh bilan erkalab gulni,
Sochini yozadi soyga majnuntol.
Go'zal manzara-yu rangin surumi,
Mayin raqsi ila ko'rsatar shamol.

Daraxtlar shoxida sayraydi qushlar,
Tinchlikka parvona qo'shiq kuylashar.
Vatan ta'rifini so'rashsa agar,
Til emas, yurakdan kuylar tuyg'ular.

Mohichehra TO'RABOYEVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 303-umumta'lim maktabining 10-«B» sinf o'quvchisi



NAVOIY BOBOM

Navoiy bobomiz ko'p,
She'r-u g'azallar yozgan.
Yozganlari bo'lib to'p,
Bizgacha yetib kelgan.

Bobomizni o'qib biz,
Ijod darsin o'lyapmiz.
Ustozlarning har kuni,
Olqishini o'lyapmiz.

Mohlaroyim TOSHPO'LATOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 157-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi

O'ZING ASRA DADAMNI

Qay yurtlarda yuribdi,
Sog'inch qalbim tilibdi.
Xabarim yo'q, Oллоhim,
O'zing asra dadamni.

O'zga yurtda nima bor,
Uyoq sovuq, qalin qor.
Tilagim, Parvardigor,
O'zing asra dadamni.

Usti butun, qorni to'q,
Hamroh bormi yoki yo'q.
Yolg'izlanib qolmasin,
O'zing asra dadamni.

Gul-u lolam, derdingiz,
Menga bilim berdingiz.
Mehridaryo va dengiz,
O'zing asra dadamni.

Mehriga muhtoj bo'lib,
Ko'zlarim yoshga to'lib.
Qolmasin guldek so'lib,
O'zing asra dadamni.



Bog'bon erur bizlarga,
Ayol, o'g'il-qizlarga.
Ko'zim mushtoq izlarga,
O'zing asra dadamni.

Shahrizoda TURSOATOVA,
Surxondaryo viloyati,
Denov tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchisi

G'AROYIB TOPILMA

Azizjon va Sarvar qalin do'st edi.
Ular doim birga berkinmashoq, quv-lashmashoq o'ynardi. Kunlarning birida ikki do'st odatdagidek berkinmashoq o'ynayotganda, Azizjon bobosining bog'i ichiga yashirinib oldi. Shu payt uning ko'zi maysalar orasida yaltirab turgan buyumga tushdi. So'ng:

– Sarvar, qara, bu nima ekan? Yur, yaxshisi dadamga olib boramiz, – deya do'sti bilan otasining yoniga chopdi.

– Dadajon, qarang biz bog'dan nima topib oldik, – dedi Azizjon qo'lidagi buyumga ishora qilarkan.

– Iye, axir bu bobongni cho'ntak soatlari-ku. Yaqinda yo'qotib qo'ygandim. Barakalla, bolalar! Yaxshiyam topib olibsizlar. Bu otamdan menga esdalik bo'lib qolgan edi. Katta bo'lsang, senga uni sovg'a qilaman. U senga doim tartibli bo'lishingda yordam beradi, – dedi Azizjonning dadasi.

Bolakay otasining quvonganini ko'rib, o'zi ham sevinib ketdi...

Husnida MUSTAFOYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahridagi 22-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi



Endi Shoyusuf bilan sira gaplashmayman. Bir partada o'tirmayman ham. To'g'ri, u ham muallim bilan so'nggi uchrashuvimiz ekanligini bilmagan. Lekin baribir uni kechirib bo'lmaydi.

O'sha kuni Namoz muallim mavzuni o'tarkan, sinf bo'ylab ohista qadam

Ilhom AHROR,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

ko'zi tushib qoldi. Suratda avtobusga chiqishga uringan odamning ko'zlari shu qadar chaqchaygan holda tasvirlangan ediki, muallimning ranjmay iloji yo'q edi.

Dars nihoyalana deganda maktab direktori Suyunov sinfga notanish kishini boshlab kirdi.

– Men tabiiylikni yaxshi ko'raman, – dedi u yonidagi salobatti kishiga ancha lutf bilan. – Boshqalar kelgan komissiyani namunali sinflarga olib kirishadi. Men esa sizni o'quvchilarning o'zlashtirishi nisbatan past bo'lgan sinfga olib kirdim. Yutuqlarimizdan oldin kamchiliklarimizni ko'ring, dedim-da, ustoz!

– Namunali sinfga olib kirdim, deyavering, – uning gapini bo'ldi hamroh bo'lib kelgan kishi. – Tumanda Namoz Yusupov tajribasiga tan bermaydigan o'qituvchi juda kam topilsa kerak. Qani, yuring, muallimga xalaqit bermaylik.

Ular chiqib ketisharkan, direktor kulgiga oldi:


– Hazillashganimni darrov bildingiz-a, domla!

Namoz muallimga e'tibor bilan qaragan odam uning ezilayotganini sezmay qolmasdi. Rangi oqarib ketgan. U yoqdan-bu yoqqa yurish bilan horg'inligini aritayotganday edi. To'satdan fikri o'zgarib yo'lidan qaytgan odamday burilib o'z o'rniga keldi va kitob orasidan Shoyusuf chizgan rasmni o'ziga keltirib berarkan, deyarli shivirlab dedi:

– Qobiliyating bor ekan, chizaver. Bu ish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Suyunov ham kechagina o'quvchim edi. Bugun mustaqil fikrlaydigan, hatto kamchiliklarimni ko'ra oladigan darajaga yetibdi. U komissiyani boshlab kirgunga qadar, sendan xafa edim. Aksincha, xursand bo'lishim kerak ekan. Befarosat, be-fahm emassan. Axir hayotdan olib chizgansan. Haqiqat yo'lida mulohaza yuritganing juda yaxshi-ku! Shu yo'lda davom etsang, senga vaqtning yin'omlari ko'p. Albatta, rassom bo'lib yetishasan.

Ertasiga sinfga kirib kelishimiz bilan xunuk xabar eshitdik: Namoz muallim vafot etibdi.

Beixtiyor Shoyusufga qaradim: u bir chetga biqinib olganicha piqillab yig'lardi...



SO'NGGI DARS

(Hikoya)

tashlardi. Nogahon Shoyusufning yonida turib qoldi. Uning qo'lidan yashirmoqchi bo'lgan qog'ozni olib, unga uzoq tikilib qoldi.

– O'xshatibsan, o'xshatibsa-an... – beixtiyor barchaning diqqatini o'ziga qaratdi muallim va holsizlanganday borib o'rniga o'tirdi. Qo'lini iyagiga tiragan holda o'yga cho'mdi. Yana qog'ozga qaradi-da, uni kitob orasiga qo'ydi. Va hech kimning ko'ziga qaramaslikka qasam ichganday goh devor-derazaga, goh yerga boqib darsni o'tishda davom etdi...

O'tgan dam olish kuni Shoyusuf bilan shaharga tushdik. Qaytishda avtobusga zo'rg'a ulgurdik. Amallab o'mashib olgan edik, tashqarida Namoz muallim ko'rindi. Ko'rim-sizgina chopon kiygan, qop orqalab turardi. Haydovchi tiqilib kirayotganlarga eshikni yopishni, keyin ham avtobus bo'lishini aytib baqirardi. Lekin bunga e'tibor bermay, odamlar o'zlarini ichkariga urishardi. Muallim ham kirishga uringan edi, qopi xalal berdi. U oldin qopini ichkariga kimg'azib, keyin o'zi suqilib kirmoqchi bo'ldi. Ammo haydovchi avtobusga gaz berdi. Bechora muallim ancha joygacha sudralib borib, oxiri qopini tortib olishga majbur bo'ldi. Va yuzidagi ajinlarni yayratib: «Mayli, taksida ketarman», deb qoldi. «Avtobusga ertaroq chiqib olmaganimizda, muallimimizga joy qolarmidi? – o'yildim ichimda. – Bunday noqulay ahvolga tushmasmidilar? Foydasi yo'q. Biz chiqmasak, boshqalar egallardi o'rnimizni...»

Shoyusuf o'sha voqeani chizgandi. Bu bilan menga o'zini ko'rsatmoqchi bo'lgandi. Lekin rasmga muallimning



BO'RON

Kuchli bo'ron, vo' ajab,
Yerga qilar tajovuz.
Bo'ron kuchi daraxt-la,
Mana keldi yuzma-yuz.

To'zg'igan havo, tuproq,
Janggohga aylanmoqda.
Har bir yaproq, har meva,
Jang uchun shaylanmoqda.

Yuzlab meva-yu barglar,
Jonini qildi fido.
Shoxlar sindi, ildiz-chun –
Vatan-chun bo'ldi judo.

Lek kuchli tanni oson,
Sindirib hech bo'lmaydi.
Ildizi mustahkam yurt,
Millat hech ham o'lmaydi.

Muxtasar KARIMOVA,
Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori

NABIRAM XITOYDAN QAYTDI

Kechagidek yodimda, nabiram Ulug'bek bolaligida juda sho'x, o'yinqaroq bola edi. G'ayrati ichiga sig'masdi, go'yo. Bog'chadan kelib qiyimlarini almashtirishga ham sabri chidamay, futbol to'pini ko'targancha ko'chaga otilardi. Onasi «hay-hay»laganicha qolaverardi. Mahalla boshlari bilan kechgacha futbol o'ynab, «charchadim», demasdi. Uning ushbu sport turiga bo'lgan qiziqishini ko'rib, uyimizga yaqin joydagi «Spartak» futbol klubiga olib borgan edim. Maqsadimni bilgach, murabbiy nabiramga bir-ikki bor to'p tepdirib ko'rdida, «Bo'ldi, ertadan mashg'ulotlarga qatnayver, sendan zo'ir futbolchi chiqadi», deya yelkasiga qoqib qo'ydi.

Shu voqeaga ham mana, hash-pash deguncha sakkiz yildan oshibdi. Nabiram Ulug'bek Jalilov bugungi kunda Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabining 8-sinfida a'lo baholarga o'qiyapti. Darsdan bo'sh vaqtlarida ingliz tilini o'rganyapti. Lekin futbolni ham tashlab qo'ygani yo'q, mashg'ulotlarga muntazam ravishda qatnayapti. Bolaligidagi sportga bo'lgan havas yoshi bilan barobar ulg'ayib, aniq maqsadga aylanib bormoqda. Kelgusida mohir futbolchi bo'lishni niyat qilgan nabiram bugungi kunda jamoaning eng kuchli «hujumchi»laridan biri sanaladi.

Uzlüksiz mashqlarda chiniqqan,

o'rtoqlik uchras-huvlarida tajriba orttirgan, ko'pchilik futbol ishqibozlarining tiliga tushishga ulgurgan bu futbol jamoasi Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Rossiya kabi davlatlarda o'tgan xalqaro musobaqalarda qatnashib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelyapti.

Yaqinda Xitoy davlatida o'smirlar o'rtasida o'tkazil-

gan «Eng yirik Xitoy kubogi» turnirida munosib ishtirok etib qaytishdi. Dunyoning 20 ta mamlakati yosh futbolchilari ishtirokida o'tgan nufuzli musobaqada yosh futbolchilarimiz faxrli o'rinni qo'lga kiritdi. «O'zbekistonlik yosh futbolchilar Osiyo jamoalari uchun kuchli raqib bo'la oladi», deya baho berdi «Spartak» jamoasiga mazkur nufuzli turnir tashkilotchilaridan biri bo'lgan Jeff Vu. Uning

bu e'tirofi umidli futbolchilarimizga kuch bag'ishladi, yangi g'alabalar sari ruhlantirdi...

Nabiramni kutib olish uchun aeroportga ketyapmiz-u, hayajonim ichimga sig'may boryapti. Vyetnam, Ispaniya, Qozog'iston kabi davlatlarning futbol jamoalarini yirik hisoblarda yengib, 20 ta mamlakat orasida 4-o'rinni qo'lga kiritish osonmi, axir?!

«Spartak»ning yosh, umidli futbolchilari yurtimiz bayrog'ini yelkaga tashlab, samolyotdan tushib kela boshlashdi. Ularga boqib, ko'zlarimda beixtiyor quvonch yoshlari halqalandi va chin dildan niyat qildim: azamat o'g'lonlarimizga jahon chempionatlarida ham ishtirok etish va albatta, g'alaba bilan qaytish nasib etsin! O'zbekiston futbolining nufuzini ko'klarga ko'tarib yurishsin!

Feruza JALILOVA



BIZ SIZGA ISHONAMIZ

Xabaringiz bo'lsa, yaqinda futbol bo'yicha O'zbekiston olimpiya terma jamoasiga serbiyalik Lyubinko Drulovich bosh murabbiy etib tayinlangan edi. Buning boisi, yosh futbolchilarimiz zimmasiga 2020-yil Tokioda bo'ladigan yozgi Olimpiya o'yinlarida munosib ishtirok etish vazifasi yuklatilgan.



Olimpiyachilarimiz mohir murabbiy qo'l ostida allaqachon tayyorgarlikni boshlab yubordi. Dastlab, Toshkentda yig'in olib borgan terma jamoamiz a'zolari kuni kecha Ispaniya

niyaga yo'l oldi. San-Pedro-del-Pinatar shahridagi o'quv mashg'ulot yig'ini davomida charmtop ustalarimiz 3 ta nazorat uchrashuvida maydonga tushishi rejalashtirilgan. Jumladan, 16-fevral kuni Lyubinko Drulovich shogirdlari Avstriyaning «VSG Wattens» klubiga qarshi o'yin o'tkazishadi. 19-fevralda «Real Mursiya A» jamoasi bilan o'zaro kuch sinashadi. So'nggi bahs esa 21-fevralda «Lokomotiv Tbilisi» jamoasiga qarshi bo'lib o'tadi.

Nasib qilsa, futbolchilarimiz o'zbek muxlisleri orzu qilganidek, Tokiodagi nufuzli musobaqada muvaffaqiyatli ishtirok etib, yurtimizga yorug' yuz bilan qaytib kelishadi. Biz bunga ishonamiz.

Sa'dullo TURSUNOV

POYTAXTLIKLAR G'OLIB

O'zbekiston olimpiya terma jamoasi futbolchilari Ispaniyaga yo'l olgan bir pallada ularning yosh ukalari poytaxtimizdagi «O'zbekiston» sport majmuida mini-futbol bo'yicha O'FA kubogi uchun o'zaro bahs olib bordi.

Musobaqaning yakuniy bosqichiga Toshkent shahridagi 162-, Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi 57-, Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi 43- hamda Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi 3-umumta'lim maktabining sportsevar o'quvchilari yetib keldi.

Dastlab, yarim final bahslari o'tkazildi. Unga ko'ra, toshkentlik yosh futbolchilar namanaganlik tengqurlariga qarshi maydonda saf tortdi. Ushbu qarama-qarshilikda poytaxtliklarning qo'li baland keldi. Yakuniy hisob - 8:2.

Ikkinchi juftlikda vohalik yosh iqtidor egalari navoiylik tengdoshlariga hech qanday imkoniyat qoldirmadi va yirik 9:4 hisobida g'alaba qozondi.

Final o'yini keskin va murosasiz tarzda o'tib, asosiy va qo'shimcha vaqtlarda hisob 4:4 ko'rinishini oldi. Penaltilar bahsida esa omad yana toshkentliklarga kulib boqdi. Eng asosiysi, ikkala jamoaning ham g'alabaga bo'lgan ishtiyogi, intilishi muxlis-u mutaxassislarda katta taassurot qoldirdi.

Yakunda navoiylik Diyor Isomiddinov, Toshkent shahri vakili Amir Sheraliyev va qashqadaryolik Ravshan Xayrullayev musobaqaning eng yaxshi o'yinchilari deb topildi. Shuningdek, g'olib va sovrindor bo'lgan jamoa a'zolari va murabbiylarga




O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Dilshod Kenjayev, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi bosh kotibi Sardor Rahmatullayev va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i Murodjon Qoraboyev medal va qimmatbaho sovg'alar topshirdi.

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

SO'ROVNOMA


- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.
- 6.
- 7.
- 8.
- 9.
- 10.

Badiiy asarlar nomlarini toping.





2 ta gugurt cho'pini o'zgartirib, 4 ta kvadrat hosil qiling.


? ni toping.



3 ta gugurt cho'pini o'zgartirib, baliqni teskari suzishiga yordam bering.



3 ta gugurt cho'pini o'zgartirib, 4 ta bir xil kvadrat hosil qiling.



Sariq doiralarning qaysi biri katta?

Internet manbalari asosida
Sherali TOSHNIYOZOV tayyorladi

TEZPISHAR TAOM

Pazanda qizgal!



Aziz qizlarjon! Bugun sizlarga lavash xamiridan tez-pishar va barchaga xush yoqadigan taom tayyorlashni o'rgatmoqchimiz.

Bu yegulik asosiy taom hisoblanmaydi, shu bois, uning yoniga pishirilgan guruch yoki grechka, qovurilgan kartoshka qo'yishingiz mumkin.

Kerakli masalliqlar: 3 dona lavash xamiri, 0,5 kilogramm tovuq go'shti qiymasi (mol go'shti qiymasi ham bo'ladi), piyoz, 2 dona pomidor, 2 dona bodring, ta'bga ko'ra ko'katlar, qovurish uchun salat yog'i.



Tayyorlanishi: tovaga yog', so'ng piyoz, qiyma solib, seli chiqqunga qadar qovuriladi. Keyin to'rtga bo'lingan 1 dona pomidor va tuz solib, biroz dimlanadi.

Lavash xamirini yo'yib, ichiga tayyor qiyma solinadi va mahkam qilib o'raladi. So'ng, o'ramaning ikki tomoni yog'da qizartirib olinadi.

Tayyor bo'lgach, likopchaga pishgan guruch, grechka yoki kartoshka bilan birga solinadi va bodring, pomidor, ko'katlar bilan bezatiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8

18-fevral 2019

Tong yulduzi
Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA
Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sa'dullo TURSUNOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-
xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzili: Navoiy ko'chasi,
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 13637
Buyurtima - V-3144

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni
chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08